

Tursunboy Adashboyev (1939-2017)



Tursunboy Adashboyev (1939-2017)



Tursunboy Adashboyev 1939 yilning 1 yanvarida Jalolobod viloyatining Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetini hamda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutini bitirgan. O'zbek va qirg'iz tillarida ijod qiladi.

«Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1967 yilda, talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentda va Bishkekda «Biz sayohatchilar» (1969), «Ala Toluk bolomun» (1971), «Arslonbobo sharsharasi» (1973), «Surnay» (1975), «Nur daryo» (1977), «Guldasta» (1979), «Olatog' — lolatog'» (1982), «Oqbura to'liqlari» (1985), «Sovg'a» (1987), «Orzularim qo'sh qanotim» (2003), «Osmondagi darvoza» kabi to'plamlari bosilib chiqqan. U 1967 yildan buyon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

Kichkintoylarga qisqa va lo'nda yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboyev ijodining muhim fazilatlaridan biridir. Shoirning bolalik xotiralari asosida yaratilgan o'nlab mashqlari ham hayotiy voqealarning hosilasi ekanligi bilan ajralib turadi. Urush va urushdan keyingi davrlarda kichik ovulda ro'y bergan hodisalar silsilasi Tursunboy Adashboyev she'rlarining o'zagini tashkil etadi.

Tursunboy Adashboyevning hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan qator asarlari rus, latish, qozoq, tojik tillarida chop etilgan. Eng sara she'rlari esa qirg'iz va o'zbek bolalar she'riyati antalogiyalaridan o'rin olgan.

Tursunboy Adashboyev jahon hamda qardosh xalqlar bolalar she'riyati vakillarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borgan. Uolter De Lamer, Yan Bjexva, Korney Chukovskiy, Samuil

Marshak, Musa Jong'oziyev, Qodir Mirzaliyev, Og'ageldi Allanazarov, Leons Briyedis kabi shoirlarning she'rlarini yosh kitobxonlar Tursunboy Adashboyev tarjimasida sevib o'qimoqdalar.

2017 yil 12 mayda Toshkent shahrida vafot etgan.

2023-09-14 21:15:46